G‘AYBULLA AS-SALOMNING ILMIY MEROSI

Muallif: Andijon davlat chet tillari instituti
Xorijiy filalogiya va turizm fakulteti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) yo'nalishi
101-guruh talabasi
Xoshimjonova Gulchiroy Muzafar qizi.

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tarjimashunosligi maktabining asoschisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor G‘aybulla as-Salom (Salomov)ning hayoti va ilmiy faoliyati yoritiladi. Olimning tarjima nazariyasi, badiiy tarjima, lug‘atchilik va qomuschilik, shuningdek, qatag‘on qilingan ijodkorlar tarjima merosini tiklashdagi xizmatlari tahlil qilinadi. Shogird tayyorlash borasidagi ishlari va ilmiy maktabining bugungi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *G‘aybulla as-Salom, tarjimashunoslik, tarjima nazariyasi, badiiy tarjima, ilmiy maktab, lug‘atchilik, ilmiy meros.*

Abstract. *The article examines the life and scholarly activity of Professor G‘aybulla as-Salom (Salomov), founder of the Uzbek school of translation studies, Doctor of Philology and Honored Scientist of Uzbekistan. It analyzes his contribution to translation theory, literary translation, lexicography and encyclopedic work, as well as to restoring the translation legacy of repressed writers. The scholar’s work in training young researchers and the present-day significance of his scholarly school are also highlighted.*

Keywords: *G‘aybulla as-Salom, translation studies, translation theory, literary translation, scholarly school, lexicography, scholarly legacy.*

Аннотация. *В статье освещаются жизнь и научная деятельность основателя узбекской школы переводоведения, заслуженного деятеля науки*

Республики Узбекистан, доктора филологических наук, профессора Гайбуллы ас-Салома (Саломова). Анализируется его вклад в теорию перевода, художественный перевод, лексикографию и энциклопедистику, а также в восстановление переводческого наследия репрессированных литераторов. Показаны его работа по подготовке научных кадров и современное значение созданной им научной школы.

Ключевые слова: *Гайбулла ас-Салом, переводоведение, теория перевода, художественный перевод, научная школа, лексикография, научное наследие.*

Kirish

Har bir xalqning ma’naviy taraqqiyoti boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalari, ularning ilm va adabiyotidan xabardorligi bilan chambarchas bog‘liq. Bu aloqalarda tarjima asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois tarjimani ilmiy asosda o‘rganish, uning qonuniyatlarini aniqlash har doim dolzarb hisoblangan. O‘zbek tarjimashunosligini alohida fan sifatida shakllantirishda muhim o‘rin tutgan olimlardan biri G‘aybulla as-Salomdir.

G‘aybulla as-Salom (1932) filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobidir. Uning asarlari o‘zbek tarjimashunosligining nazariy asoslarini yaratgan va tarjimashunoslikka oid o‘quv adabiyotlarida tilga olinadi. 2022-yilda olimning 1966-yilda chop etilgan “Til va tarjima” monografiyasi qayta tahrir qilinib nashr etilgani ham uning ilmiy merosiga qiziqish so‘nmaganini ko‘rsatadi.

XX asrda tarjima amaliyotining kengayishi uning nazariy masalalarini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi. O‘zbek tarjimashunosligida bu masalalarni ilmiy asosda o‘rganish 1960-yillardan boshlandi va bu jarayonda G‘aybulla as-Salomning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Olimning ilmiy qarashlarida tarjimani til va

adabiyot hodisalari birgalikda o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Shu sababli uning ilmiy merosini tizimli yoritish dolzarb vazifadir.

Olimning asl ismi Salomov G‘aybulla Tojiddinovich bo‘lib, “as-Salom” uning ijodiy taxallusidir. U o‘z faoliyatini tarjima nazariyasi va amaliyotini o‘rganishga, bu sohada ilmiy maktab yaratishga bag‘ishladi. Maqolaning maqsadi G‘aybulla as-Salomning ilmiy merosini, uning o‘zbek tarjimashunosligi va adabiyotshunosligi rivojidagi o‘rnini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda olimning asarlari va u haqidagi nashrlar tavsifiy va tahliliy usulda o‘rganildi.

1. Hayot yo‘li va ilmiy shakllanishi

G‘aybulla Salomov 1932-yil 11-dekabrda Samarqand viloyatining Xatirchi tumanida tug‘ilgan. 1956-yilda Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgan. Keyingi yillarda “Fan va turmush” jurnalida bo‘lim mudiri bo‘lib ishladi, so‘ngra O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutida aspirant, ilmiy xodim va direktor o‘rinbosari lavozimlarida mehnat qildi. Shuningdek, yurtimizning yetakchi nashriyotlarida mas’uliyatli vazifalarni bajardi.

Olim 1982-yilda filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini, 1984-yilda professor ilmiy unvonini oldi. 1993-yilda unga O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi unvoni berildi. Keyinchalik Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida professor sifatida faoliyat yuritdi.

2. Tarjima nazariyasi sohasidagi ilmiy xizmatlari

G‘aybulla as-Salom ilmiy faoliyatining asosiy yo‘nalishi badiiy tarjimashunoslik, shuningdek, ma’naviyat, ma’rifat va madaniyat masalalari edi. U tarjimani o‘rganishni 1960-yillardan boshladi va bu ishni izchil davom ettirdi. Olimning muhim ilmiy xizmati shundaki, u tarjimani ham lisoniy, ham badiiy hodisa sifatida ilmiy asosladi. Ya’ni tarjima faqat tillararo moslik emas, balki ijodiy jarayon ekanini nazariy jihatdan isbotladi.

Olimning quyidagi asarlari o‘zbek tarjimashunosligi uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qildi:

- “Maqol va idiomalar tarjimasi” (1961);
- “Til va tarjima” (1966);
- “Do‘stlik ko‘priklari” (1970, N. Komilov bilan hamkorlikda);
- “Tarjima nazariyasiga kirish” (1978);
- “Adabiy an’ana va badiiy tarjima” (1980);
- “Tarjima nazariyasi asoslari” (1983).

Bu asarlar tarjimaning til va adabiyot bilan aloqasini, uning nazariy masalalarini va amaliy jihatlarini qamrab olgan. Ayniqsa, “Tarjima nazariyasi asoslari” kitobi keyingi tadqiqotchilar uchun tayanch manba bo‘lib qoldi va tarjimashunoslikka oid o‘quv adabiyotlarida muntazam tilga olinadi.

3. Lug‘atchilik va qomuschilikdagi xizmatlari

Olimning ilmiy izlanishlari faqat tarjima bilan cheklanmagan. U dastlab lug‘atchilik va qomuschilik masalalariga oid jiddiy ilmiy ishlar yozgan. Keyinchalik shu asosda Ibrohim Mo‘minov kabi yirik olim bilan birga o‘zbek milliy qomusi tamal toshini qo‘yganlardan biri bo‘ldi. Bu faoliyat uning keng bilimli, ensiklopedik dunyoqarashga ega olim bo‘lganini ko‘rsatadi.

4. Qatag‘on qilingan ijodkorlar tarjima merosini tiklashdagi xizmati

G‘aybulla as-Salomning muhim xizmatlaridan biri sobiq tuzum davrida qatag‘on qilingan ziyolilarning tarjima merosini o‘rganib, xalqqa qaytarishidir. Manbalarda Abdulla Qodiriy, Sanjar Siddiq, Abdulhamid Cho‘lpon, Mirzakalon Ismoiliy, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, G‘afur G‘ulom kabi ijodkorlarning tarjimalari olimning ko‘p yillik mehnati tufayli ilmiy muomalaga kiritilgani qayd etiladi. Bu ish nafaqat tarjimashunoslik, balki milliy adabiyot tarixini to‘laroq tasavvur qilish uchun ham katta ahamiyatga ega.

5. Ilmiy maktabi va shogirdlari

G‘aybulla as-Salomning sa’y-harakati bilan o‘sha davrda ToshDU (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) negizida sobiq ittifoqda birinchi bo‘lib “Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi” tashkil etildi. Bu kafedra tarjimachi kadrlar tayyorlash va tarjimashunoslik tadqiqotlarini rivojlantirish markaziga aylandi.

Olim mamlakatimizda eng ko‘p shogird tarbiyalagan olimlardan biridir. Manbalarga ko‘ra, uning ilmiy rahbarligida 57 kishi fan nomzodi, 5 kishi fan doktori ilmiy darajasini olgan. Shu asosda shakllangan “G‘aybulla Salomovning o‘zbek tarjimashunosligi maktabi” o‘zbek ilm-fani rivojida munosib o‘rin egallaydi. Olimning shogirdlari ustozning ilmiy tamoyillarini o‘rganib, ularni davom ettirmoqda.

6. Ilmiy merosning bugungi ahamiyati

Bugun G‘aybulla as-Salomning tarjimashunoslikka oid asarlari kutubxonalarda ham, internetda ham o‘qilmoqda. Olimning tavallud kuni, ya’ni 11-dekabrda har yili ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazilishi an’anaga aylangan. Uning 90 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Milliy universitetida ilmiy konferensiya va seminarlar o‘tkazish, xotira burchagi tashkil etish, tanlangan asarlar to‘plamini nashr qilish kabi tadbirlar rejalashtirilgani ham olim merosiga bo‘lgan e’tiborni ko‘rsatadi.

Olim yaratgan nazariy qarashlar bugungi kunda ham dolzarbdir. Globallashuv sharoitida tarjimaning roli ortib borayotgan bir paytda, uning ilmiy asoslarini bilish tarjimonlar, filologlar va o‘qituvchilar uchun katta ahamiyatga ega.

Xulosa

G‘aybulla as-Salom o‘zbek tarjimashunosligini mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllantirgan olimdir. Uning asosiy xizmatlari quyidagilardan iborat: tarjimani lisoniy va badiiy hodisa sifatida nazariy asoslagani, tarjimashunoslikka oid muhim kitoblar yaratgani, lug‘atchilik va qomuschilikka hissa qo‘shgani, qatag‘on

qilingan ijodkorlarning tarjima merosini tiklagani hamda ko‘plab shogirdlar tayyorlab, ilmiy maktab yaratgani.

Demak, olimning merosi o‘zbek ilm-fani va madaniyati uchun katta boylikdir. Bu merosni chuqur o‘rganish va yosh avlodga yetkazish har bir tadqiqotchining ma’naviy burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent, 1983.
2. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent, 1978.
3. Salomov G‘. Adabiy an’ana va badiiy tarjima. – Toshkent, 1980.
4. G‘aybulla as-Salom. Vikipediya, ochiq ensiklopediya. https://uz.wikipedia.org/wiki/G‘aybulla_as-Salom
5. G‘aybulla Salomov va o‘zbek tarjima maktabi. O‘zA. https://uza.uz/oz/posts/gaybulla-salomov-va-ozbek-tarjima-maktabi_435070
6. O‘zbek tarjimashunoslik maktabi asoschisi. https://pravacheloveka.uz/oz/news/m14486
7. G‘aybulloh as-Salomning ilmiy va ma’naviy merosi. https://nhrc.uz/oz/news/m8757
8. G‘ulom Mirzo. G‘aybdan salom. https://kh-davron.uz
9. G‘afurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Darslik. – Toshkent: TDShI.